


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*60520200 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bakalavriat ta'lim  
yo'nalishining*

**MALAKA TALABI**

Toshkent-2024



**ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN**  
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024 yil «25» 06 dagi 928 - sonli buyrug'i bilan

**JORIY ETILGAN:**  
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi .....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarning obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar.....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar .....</b>	<b>7</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>8</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	<b>8</b>
	<b>Bibliografik ma’lumotlar.....</b>	<b>10</b>
	<b>Kelishuv varag‘i .....</b>	<b>11</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

60520200 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo’llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo’llanilishi.**

Malaka talablari 60520200 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta’lim yo’nalish bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o’qituvchilari;

ta’lim yo’nalishining o’quv rejasi va fan dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning otionalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari:**

Fan sohasidagi bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’lib, professional ta’lim tizimi tashkilotlari, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, O’zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni mohofaza qilish va iqlim o’zgarishi vazirligi tasarrufidagi viloyat boshqarmalari va tuman bo’limlari, davlat boshqaruvi organlari, umumiy o’rta, professional ta’limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar bilan bog’lik kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

### 1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning ob’ektlari:

Davlat va nodavlat tashkilotlari, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalaridagi lavozimlarda hamda respublikadagi mavjud vazirliklar tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlarda ekolog mutaxassis.

60520200 - Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta’lim yo’nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgan taqdirda, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.

### 1.2.3. Kasbiy faoliyatlarning turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *loyiha-texnologik;*
- *servis xizmatini ko‘rsatish;*
- *ishlab chiqarish-texnologik;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*

### 1.2.4. Kasbiy vazifalar.

60520200 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta’lim yo’nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

Respublika va xorijda chop etilgan ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga oid ilmiy- texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o‘rganish;

soha bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda bevosita ishtirok etish;

mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy-texnikaviy ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma’lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish.

ishlab chiqarish jarayonini ekologik nazorat qilish;

amaliy faoliyatda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish;

zamonaviy texnologik jarayonlarni qo‘llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

ekologiya va atrof muhit muhofazasiga oid ilmiy va ilmiy-texnik ma’lumotlarning o‘rganish va taxlil qilish;

ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etishda va uni bajarishda bevosita ishtirok etish;

ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasidagi ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:

atrof muhitni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish;

atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tadbirlarini amalga oshirishni rejalashtirish;

tabiat va uning resurslaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va samaradorligini baholashda zamonaviy axborot texnologiyalar tizimidan foydalanish;

atrof muhitni muhofaza qilishda chiqindilarning me'yoriy talab normalariga va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish va nazorat qilish;

**Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatda:**

sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

ishlab chiqarish sharoitlarida atrof muxitga ko'rsatiladigan ta'sir jarayonlari va darajalarini baholash;

Ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

**Axborot-tahliliy faoliyatda:**

atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini ta'minlash.

pullik ta'lim xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

**2. Kasbiy kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar.**

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo'llay olishi;

davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish.

ta’lim yo’nalishi fanlarini o‘rganish va chuqur egallash uchun zarur bo‘lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko‘nikma va uquvlarni shakllantirishi; ta’lim yo’nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

tegishli bakalavriat yo’nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo‘yicha magistraturada oliy ta’limni davom ettirishga;

kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo‘shimcha kasb ta’limi olish uchun tayyorlanadilar;

tabiatda yo‘qolib borayotgan alohida o‘simlik va xayvon turlarini muhofaza qilish;

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

atmosfera havosini muhofaza qilish;

ifloslangan havoning inson, o‘simlik va xayvonlarga ta’sirini oldin olish;

havo ifloslanishini kuzatish va nazorat qilish;

suvlarning sanoat va maishiy chiqindilar bilan ifloslanishini nazorat qilish;

yer osti va yer usti suvlarini muxofaza qilish;

o‘rmon monitoringini o‘tkazish;

noyob daraxtlarni kesilishi bo‘yicha qonun xujjatlarni shakllantirish;

eroziya, sho‘rlanish jarayonlarining oldini olish;

tuproqlarning ifloslanishidan saqlash, cho‘llanish jarayonining oldin olish;

ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo‘llash qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

sohaga oid ilmiy va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, axborot va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiq qilish;

tabiiy resurslardan foydalanish va tabiiy muhit komponentlariga ta’sir etuvchi faoliyatlarning atrof muhitga ta’sirini baholash jarayonlarini o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

### **3 Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.**

Malaka amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish,

tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

**4. Fanlar katalogining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		<b>Umumiy majburiy fanlar</b>	<b>4620</b>	<b>154</b>	
1.01	O'YT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	UK1106	Umumiy kimyo	180	6	1
1.03	XT1104	Xorijiy til	120	4	1
1.04	MAT11208	Matematika	240	8	1,2
1.05	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.06	JMS1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
1.07	UMF1206	Umumiy fizika	180	6	2
1.08	EKA1206	Ekologiya asoslari	180	6	2
1.09	DIN1304	Dinshunoslik	120	4	3
1.10	FAL1304	Falsafa	120	4	3
<b>Ekologiya faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.11	HZEM1304	Hozirgi zamonning ekologik muammolari	120	4	3
1.12	IJE1306	Ijtimoiy ekologiya	180	6	3
1.13	BRA1406	Barqaror rivojlanish asoslari	180	6	4
1.14	GVG15612	Gidroekologiya va geoeologiya	360	12	5,6
1.15	EM1506	Ekologik monitoring	180	6	5
1.16	CHB1606	Chiqindilarni boshqarish	180	6	6
1.17	BIG1106	Biogeografiya	180	6	1
1.18	TAE11210	Tuproq va agroekologiya	300	10	1,2
1.19	BEK13412	Bioekologiya	360	12	3,4
1.20	SSE13412	Shahar va sanoat ekologiyasi	360	12	3,4
1.21	UEF1404	O'simliklar ekofiziologiyasi	120	4	4
1.22	OOX1406	Oziq-ovqat xavfsizligi	180	6	4
1.23	AMT15610	Atrof-muhitga ta'sirni baholash	300	10	5,6
1.24	AMB1704	Atrof-muhit biindikatsiyasi	120	4	7
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1500</b>	<b>50</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1500	50	5,6,7
<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Ekolog</i>			
<b>Muhandis-ekolog (suv xo'jaligida) faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.11	ME1104	Muhandislik etikasi	120	4	1
1.12	AT1304	Axborot texnologiyalari	120	4	3
1.13	MG1406	Muhandislik grafikasi	180	6	4
1.14	GG11312	Gidroekologiya va geoeologiya	360	12	1,2
1.15	EM1506	Ekologik monitoring	180	6	5
1.16	CHB1606	Chiqindilarni boshqarish	180	6	6
1.17	EH1304	Ekologiya huquqi	120	4	3
1.18	AMTB13416	Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirni baholash	480	16	3,4
1.19	LKOST15608	Lokal kanalizatsiya va oqava suvlarni tozalash	240	8	5,6
1.20	TIU1506	Tahlilning instrumental usullari	180	6	5
1.21	GAT13408	Geografik axborot tizimlari asoslari	240	8	3,4
1.22	TMQ14612	Tabiatni muhofaza qilish	360	12	4,6
1.23	BM1204	Biologiya va mikrobiologiya	120	4	3
1.24	SRMF16708	Suv resurslaridan mukammal foydalanish va ularni muhofazasi	240	8	6,7
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1500</b>	<b>50</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1500	50	5,6,7
<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Muhandis-ekolog (suv xo'jaligida)</i>			



Muhandis-ekolog (sanoatda) faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar					
1.11	HZEM 1305	Hozirgi zamonning ekologik muammolari	120	4	1
1.12	IE 1305	Ijtimoiy ekologiya	120	4	1
1.13	BRA 1406	Barqaror rivojlanish asoslari	120	4	1
1.14	GvaG 15609	Gidroekologiya va geoeologiya	120	4	2
1.15	EM 1404	Ekologik monitoring	270	9	3,4
1.16	CHB 1706	Chiqindilarni boshqarish	270	9	3,4
1.17	IK 1104	Ixtisoslikka kirish	180	6	3
1.18	AMKJ 1406	Atrof muhitdagi kimyoviy jarayonlar	300	10	3,4
1.19	ME 14509	Muhandislik ekologiyasi	360	12	4,5
1.20	AMSFKT 13410	Atrof muhit sifatining fizik-kimyoviy tahlili	120	4	4
1.21	UKT 15610	Umumiy kimyoviy texnologiya	180	6	4
1.22	SCHTT 16710	Sanoat chiqindilarini tozlash texnologiyalari	300	10	6,7
1.23	AMHJQ 16711	Atrof muhit himoyasining jarayon va qurilmalari	330	11	6,7
1.24	EM 16709	Ekologik menejment	330	11	6,7
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	1500	50	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1500	50	5,6,7
<i>Kvalifikatsiyav</i>		<i>Muhandis-ekolog (sanoatda)</i>			
Ekolog (transport sohasida) faoliyat turi bo'yicha majburiy fanlar					
1.11	HINQ1104	Havoning ifloslanishini nazorat qilish muhandisligi	120	4	1
1.12	TE1104	Transport ekologiyasi	120	4	1
1.13	CHB1406	Chiqindilarni boshqarish	180	6	4
1.14	BAT13412	Barqaror transport	360	12	3,4
1.15	AMTBM1506	Atrof-muhitga ta'sir baholash va monitoring	180	6	5
1.16	SRM1606	Suv resurslari muhandisligi	180	6	6
1.17	ETT11208	Ekologik ta'lim va tarbiya	240	8	1,2
1.18	TMTM13408	Tuproq muhiti va tuproq mexanikasi	240	8	3,4
1.19	AHHQ13408	Atmosfera havosini himoya qilish texnologiyasi	240	8	3,4
1.20	BR13408	Barqaror rivojlanish	240	8	3,4
1.21	EL15610	Ekologik logistika	300	10	5,6
1.22	BE13408	Bioekologiya	240	8	3,4
1.23	TOK15608	Toksikologiya	240	8	5,6
1.24	EKE16708	Ekologik ekspertiza	240	8	6,7
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	1500	50	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1500	50	5,6,7
<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Ekolog (transport sohasida)</i>			
		<b>Jami</b>	6120	204	
		<b>Malaka amaliyoti</b>	840	28	2,4,6,8
		<b>BMI (Yakuniy davlat attestatsiyasi)</b>	240	8	8
		<b>JAMI</b>	1080	36	
		<b>HAMMASI</b>	7200	240	

\* OTM o'quv jarayonlarini tashkil etish xususiyatidan kelib chiqib, semestrlar uchun belgilangan umumiy kredit miqdorini muvofiqlashtirgan holda fanlar o'tiladigan semestrlarni o'zgartirishi mumkin.

\*\* Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda malaka amaliyot ta'lim jarayonining tegishli qismida uzluksiz 15 hafta hajmida belgilanadi. 15 haftalik malaka amaliyoti ma'lum bir semestrga to'liq hajmda qo'yilgan taqdirda fanlar katalogida ushbu semestrda o'quv fanlar mashg'ulotlari belgilanmasligi lozim (Masalan, malaka amaliyoti to'liq 6-semestrga qo'yildi, bu holda fanlar katalogining 6-ustunida bironta o'quv fani qatorida 6-semestr qayd etilmaydi. 6-semestr faqat "Malaka amaliyoti" qatorida ko'rsatiladi).

## **Bibliografik ma'lumotlar**

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OXS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, ekosistema, biogeotsenoz, senoz, o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, biologik hilma-xillik, populyatsiya, tur, produsentlar, konsumentlar, redusentlar, litosfera, gidrosfera, atmosfera, landshaft, gorizonttal struktura, vertikal struktura, cho'l, adir, tog', yaylov, barqaror rivojlanish, tabiatdan foydalanish, tabiat muhofazasi, noyob turlar, kamyob turlar, endemizm, inson ekologiyasi, ijtimoiy ekologiya, ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, suv muhiti, havo muhiti, tuproq muhiti, ekologik omillar, biotik omillar, abiotik omillar, antropogen omillar, maksimum ta'sirlar, minimum ta'sirlar, suvning ifloslanishi, tuproqning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, sho'rlanish, qurg'oqchilik, iqlim o'zgarishlari, globallashuv, mintaqalar muammolari, ichimlik suv, ozon qatlami, ekologik valentlik, ekologik monitoring.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston Milliy universiteti  
Rektor I. Madjidov



2024 yil « 19 » 06  
M.O'.

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi

Direktor M. Boltabayev



2024 yil «    »  
M.O'.

O'zbekiston Respublikasi  
Fanlar Akademiyasi  
Zoologiya instituti

Direktor B. Xolmatov



2024 yil «    »

Toshkent davlat texnika  
universiteti

Rektor S. Turabdjano



2024 yil «    »

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti**  
**60520200 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka**  
**talablari va o‘quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta‘lim muassasalari**  
**va asosiy kadrlar iste‘molchilari o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

**Toshkent sh.**

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Zoologiya instituti direktori B. Xolmatov, Toshkent davlat texnika universiteti rektori, akademik S.Turabdjano, O‘zbekiston Milliy universiteti rektori prof. I.U.Madjidov birgalikda O‘zMUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv reja si mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60520200 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta‘lim yo‘nalishi.

Malaka talablari hamda o‘quv rejasini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori hamda O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta‘limning me‘yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2024 yil 20 maydagi “O‘z DSt 3557:2021 “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste‘molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi**  
**Zoologiya instituti direktori**



**B. Xolmatov**

**Toshkent davlat texnika**  
**universiteti rektori, akademik**



**S.Turabdjano**

**O‘zbekiston Milliy universiteti**  
**rektori, professor**



**I.Madjidov**

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida  
ishlab chiqilgan 60520200 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta‘lim  
yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma‘lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik  
darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan  
malaka talablari va o‘quv rejasiga**

**T A Q R I Z**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida” gi Qonunini ijpo etish, ta‘lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyoplanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta‘lim, fan, texnika va texnologiyalar pivojlanishining ilg‘op jahon darajasiga muvofiqligini ta‘minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog‘liq.

60520200 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta‘lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarori hamda O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta‘limning me‘yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2024 yil 20 maydagi “O‘z DSt 3557:2021 “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga xamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi o‘quv rejasini kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o‘zlashtirishi, amaliyotlarni o‘tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko‘nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta‘minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60520200 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta‘lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kop malakasi shakllanishini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar xamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan oldida turgan

dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy echimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, dala va laboratoriya amaliyotlariga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyilla-riga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalarining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60520200 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga etkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama etuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standaplash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi xamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**Toshkent davlat texnika  
universiteti rektori**



**S.Turabdjano**

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida  
ishlab chiqilgan 60520200 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta‘lim  
yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma‘lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik  
darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan  
malaka talablari va o‘quv rejasiga**

**TAQRIZ**

M.Ulug‘bek nomidagi O‘zMU da 60520200 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta‘lim yo‘nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig‘i va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “2019-2023-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60520200 - Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasida xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta‘lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kop malakasi shakllanishini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar xamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobiy echimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, dala va laboratoriya amaliyotlariga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma‘lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta‘limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o‘ziga xoslikni saqlash va jahon ta‘lim makoniga integrallashtirish tamoyilla-riga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo‘yicha fanlar tarkibi, ularning o‘zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60520200 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga etkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama etuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standaptlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi xamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**O'zMU Ekologiya kafedrası**  
**professori**



**T.Raximova**